



YADRO URUSH XAVFI, XATARLAR VA EHTIMOLLAR

Muhammadrizayev Shohboz Iqboljon o'g'li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika universiteti bakalavr 2-bosqich talabasi

shaxbozm07@gmail.com

Annotatsiya: Ayni damda dunyoda, xalqaro arenada bo'layotgan geosiyosiy o'zgarishlar tobora ortib bormoqda. Va, xususan, Rossiya Federatsiyasining 2022- yilning 24-fevralida Ukrainaga qilgan hujumidan keyin, nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro siyosiy vaziyat murakkablashdi. Bu hujumga javoban ko'plab g'arb davlatlari Rossiyaga sanksiyalar kiritdi va o'zaro nizoli vaziyat paydo bo'ldi. Bu sanksiyalar va Ukrainaga qilina boshlangan yordamga esa Vladimir Putinning yadro qurollarini jangovar sha'y holatga keltirish haqida bergan buyrug'i dunyoda yadro urushi yuz berishi mumkin yoki yo'qligi haqidagi ancha vaqtdan beri muhokama bo'lib kelayotgan savolni yana o'rtaga tashladi. Mazkur maqolada dunyodagi yadro quroliga ega davlatlar va ularning bu qurollardan foydalanish ehtimolligi, dunyoda yadro urushi bo'lishlik xavfi qay darajada ekanligi va agar dunyo yadro urushini boshdan kechirsa oqibat qanday bo'lishligi haqidagi fikr va ma'lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Yadro arsenali, Yadro qurollarini tarqatmaslik, Yadroviy urush, NATO, Budapesht memorandum, Strategik qurollarni cheklash, Doktrina.

Ikkinchi Jahon Urushi tugash arafasida, 1945-yilning 6-va 9-avgust kunlari hali taslim bo'lmagan Yaponiyaning ikki shahri tarixda birinchi va oxirgi marta qo'llangan yadro quroli qurboni bo'ldi, va yadro qurolining qanday ofatlar keltirishi AQSH tomonidan qo'llangan bu hujumda o'z aksini topdi. Yuz minglab insonlarni halok qilgan, yana bir qancha o'n, yuz ming insonlar bu qurol natijasida nogiron bo'lib qoldi. Bu ikkita shaharga tashlangan yadro quroli butun yaqin tarixga undan qo'rqishga yetarli bo'ldi. Sovuq urush davrida ko'tarilgan ikkita buyuk yadroviy davlatning to'qnashuvi ham iloji boricha muzokaralar yo'li bilan hal qilishga urinildi va shunday bo'ldi ham. 21-asrda yadro urush bo'lishi xavfi haqidagi savollar Rossiyaning Ukrainaga qilgan hujumidan keyin ko'z o'ngimizda namoyon bo'lib, yana muhokama qilina boshlandi. Bu qanchalik asosli?

Shuni unutmashimiz kerakki yadro quroli faqat Rossiyada mavjud emas.

Stokgolm Tinchlik Tadqiqot institutining hisobtlariga ko'ra, dunyoda 9ta yadroviy qurolga ega davlatlar mavjud. Ular : AQSH, Rossiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Pokiston, Hindiston, KXDR va Isroil. Umumiy hisobda ular 13 mingga yaqin yadro qurollariga ega . sayyoramizdagi barcha yadro kallaklarining 90% qismi AQSH va Rossiyaga tog'ri keladi. Davlatlar bir-biriga minglab yadro qurollarini qaratar ekan, insoniyat kelajagi qil ustida turadi. Biroz oldingi davrga qaytadigan bo'lsak , masalan Sovet ittifoqining o'zida 45mingga yaqin yadro qurollari mavjud edi. 1970-yilda AQSH da 26mingdan oshiq yadro qurollari bor edi. U davr siyosiy arboblari yadroviy urush xavfi qanchalar qirg'inbarot bo'lishligini tushunishgan. 1968 – yilda BMT “yadro qurollarini tarqatmaslik tog'risida” rezolyutsiya qabul qildi. SSSR , AQSH, Buyuk Britaniya kabi yadro quroliga ega va unga ega



bo'lmagan qirqqa yaqin davlat ushbu shartnomani ratifikatsiya qilgach, shartnoma xalqaro kuchga ega bo'ldi. Bugungi kunda dunyoning 170 davlati ushbu shartnoma shartlarini qabul qilib, uni ratifikatsiya qilgan. Bu shartnomaga ko'ra, yadro quroliga ega davlatlar, bu qurol bilan unga ega bo'lmagan davlatlarga tahdid qilmaslik majburiyatini oladi. Unga ega bo'lmagan davlatlar esa, o'z navbatida bunday qurolga ega bo'lishga harakat qilmaslik shartlarini qabul qiladi. Shartnomaning eng muhim qismi esa yadro quroliga ega bo'lmagan davlatga yadroviy hujum qilingan yoki bunday hujum tahdidi yuzaga kelgan taqdirda BMT xavfsizlik kengashi va uning yadro quroliga ega bo'lgan doimiy a'zolari BMT talablariga muvofiq zudlik bilan javob harakati amalga oshirishi kerakligi haqidagi banddir.

Ukraina BMTga 1945-yili tashkilot asoschilaridan biri sifatida a'zo bo'lgan.

SSSR tarkibidan Belarus va Ukraina tashkilotda alohida a'zolikka ega edi. BMTning yadro qurollarini tarqatmaslik haqidagi rezolyutsiyasiga qo'shilish masalasi esa faqatgina 1991-yili Ukraina mustaqillikka erishgach kun tartibiga chiqadi. Negaki, Ukraina Respublikasi hududida sobiq SSSRning yadro sanoati va qurollari mavjud edi.

1991-yildan boshlab ushbu yadro qurollari kelajagi borasida muzokaralar boshlanadi. Ukraina ushbu qurollarni berishni xohlamaydi va uni o'z himoyasining kafolati deb biladi. Ukrain rasmiylari o'sha davrda ham Rossiya xavfini his qilgandi. AQSh va Buyuk Britaniya aralashuvi hamda bosimi ostida 1994-yili Vengriya poytaxti Budapeshtda AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya va Ukraina vakillari Ukrainaning yadro qurollaridan voz kechishi, shu turdagi qurollarning bir qismini yo'q qilishi va Rossiyaga topshirishi haqida Budapesht memorandumini imzolaydi.

Budapesht memorandumini Ukrainaning boshqa yadroviy quroli bo'lmagan davlatlardek xavfsizligini kafolatlaydi. Memorandumning to'rtinchi qismida AQSh, Buyuk Britaniya va Rossiya agar Ukraina tajovuz qurboni yoxud yadro quroli tahdidi ostida qolsa, unga BMT Xavfsizlik Kengashi orqali zudlik bilan yordam ko'rsatilishini ta'kidlaydi. Oltinchi bandga ko'ra, AQSh, Buyuk Britaniya va Rossiya Ukraina tajovuz ostida qolganda darhol majburiy maslahatlashuvlar o'tkazadi. Demak Rossiya Ukrainaga yadro quroli bilan hujum qilishi uchun shartnomani buzishi va javobga tayyor turishi kerak bo'ladi.

Agar Rossiya Ukrainaga nisbatan yadro qurolidan foydalansa, birinchi navbatda BMTning "Yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risida"gi qarorini buzgan bo'ladi. Bu esa BMT Xavfsizlik Kengashi va tashkilotning yadro quroliga ega doimiy a'zolari (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy)ning javob reaksiyasini talab etadi. Shuningdek, Budapesht memorandumiga ko'ra, AQSh va Buyuk Britaniya Ukrainaga mamlakat yadro quroli nishoniga aylangan taqdirda yordam ko'rsatishga ham va'da bergan.

Yadroviy davlatlarning bu quroldan qanday vaziyatlarda foydalanishi mumkinligiga nazar tashlaymiz. Birinchi navbatda yadro qurolidan foydalanish doimo faqatgina oxirgi va favqulodda chora sifatida qo'llaniladi. AQSH 2018-yilgi harbiy doktrinasiga ko'ra, yadro klubiga a'zo davlatlar va yadro qurollarini tarqatmaslik haqidagi shartnomani buzgan davlatlarga nisbatan bu arsenaldan foydalanishga ruxsat beradi. AQSH uchu tahdidlarni bartaraf etishning asosiy usuli sanksiyalar va oddiy kuchlardan foydalangan holda harbiy operatsiyalar o'tkazishdir. NATO tashkiloti ham a'zolardan biriga tahdid tug'ilgan vaqtda yadro qurolidan foydalanishga qat'iy qaror qabul qilishi mumkin. Xususan Jo Bayden o'z nutqida NATO ning har bir dyumi himoya qilinishi, agar unga tashqi hujum yoki tahdid



bo'lsa, shu zahoti javob qaytarilishi va bu xatto 3-jahon urushi bo'lishi haqida bayon qilgan edi. Va shu o'rinda aytib o'tish kerakki, nega Rossiya kutilmaganda nimadandir xavfsiragandek Ukrainaga hujum qildi degan savolga uning NATO ga a'zo bo'lishga harakat qilib qolganligi bilan deb javob berish mumkin. Chunki agar Rossiya hujumidan oldin Ukraina tashkilotga a'zo bo'lganda, u holda Rossiya unga hujum qilolmagan bo'lardi. NATO ning 4- moddasida yozib qo'yilganki, tashkilotga faqatgina hududiy nizosi bo'lmagan davlatlar qo'shilishi mumkin. Demak Rossiya maqsadiga yetguncha, urushni cho'zishdan manfaatdor. Rossiya 2020-yilda yadroviy tiyib turish doktrinasini imzoladi, unga ko'ra Rossiya yadro qurolidan foydalanish mumkin bo'lgan 4ta shartni belgilaydi: 1-2-Rossiya yoki uni ittifoqchilari tomon ballistic raketalarining uchirilishi yoki yadro quroldan foydalanish; 3-Yadroviy javob qaytarish zarbasi uchun muhim bo'lgan obyektlarni yo'q qilinishi va 4-davlatning mavjudligiga tahdid soluvchi har qanday kuchlarning tajovuzi. Rossiyada yadroviy qurolning qizil tugmasi 3kishining qo'lida, ular prezident Putin, bosh shtab boshlig'i Sergey Shoygu va bosh shtab boshlig'i Valeriy Gerasimovlar. Xitoy va Hindiston har qanday holda ham yadro qurolidan birinchi bo'lib foydalanmaslikka va'da bergan. Pokiston yadro doktrinasini asosan Hindiston tomonidan har qanday harbiy aralashuv yoki tajovuz oldini olish uchun qaratilgan. KXDR esa faqat mamlakat mustaqilligiga tajovuz qilingandagina qasos olish sifatida yadro qurolidan foydalanishni nazarda tutadi. Isroil bo'lsa hech qachon o'zlarida yadro quroli borlini tasdiqlamagan va shu bilan birga inkor ham qilmaydi. Hozirda shunday yadroviy tizimlar mavjudki, qachonki davlat rahbari yoki harbiy rahbar yo'q qilinsa, avtomatik ravishda yadro tugmasi bosiladi.

Har bir yadroviy davlat bu qurollarni ma'lum qismini sha'y holatga keltirib qo'yadi. Misol uchun Rossiya, g'arb yoki AQSH hech qachon Rossiyani butunlay mag'lub qilolmaydi xatto uni qo'shini janggi qodir bo'lmasada. Chunki uni 7yadroviy qurollari har bitta dushman bo'lishi mumkin bo'lgan davlatga qaratilganva agar Rossiya qo'shini butunlay tor-mor qilinsa, unda minglab raketalar o'z joyidan qo'zg'alishni boshlaydi.

Yadroviy davlatlarning bu qurollardan foydalanish sabablarini ko'rib chiqdik. Xulosa qilib aytganda, dunyo yadro urushini boshdan kechirishi mumkinmi?

E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, Rossiyadan boshqa davlatlarning iloji boricha bu holatdan uzoq bo'lishga urinayotganini ko'ramiz. Barcha olimlar yadro urushi natijasida deyarli hayot tugashligini, ularning eng optimistlari esa dunyo yuz yillab rivojlanishda ortga qaytishini ta'kidlaydilar. Yaqinda Szi Szin Pinning Moskvaga tashrifi, uyerdagi olti soatlik suhbatlar natijasi o'laroq ko'zga ko'ringan narsa shu bo'ldiki, Xitoy Rossiyani strategic qurollarni cheklashga chaqirdi. Nafaqat Xitoy, balki Rossiyaning boshqa ittifoqdoshlari ham hech biri yadro qurolidan foydalanishni ma'qullamaydi. Belarusga kelsak, deyarli uni tashqi siyosati Rossiyaga qaragan. Rossiyaning yadro urushi xavfi tomon yurgan uchta asosiy qadami: Putinning yadro qurollarini maxsus sha'y holatga keltirish haqidagi qarori, Rossiyaning Strategik qurollarni cheklash haqidagi shartnomadan chiqib ketishi va so'ngi paytdagi uni harakati, ya'ni Belarusga taktik yadro qurolini joylashtirishi.

Rossiya agar birinchi bo'lib bu quroldan foydalangan taqdirda ham shu zahoti javob qaytishligini yaxshi biladi va bundan tashqari Finlandiyaning NATO ga a'zo bo'lishligi ham NATO ni kuchlarini rossiyaga yaqinlashtirish imkoniyatini beradi. Belarusga joylashtirilgan qurol esa bu shubhasiz, g'arbgga o'zini qudratini ko'rsatish va ularni qo'rqitish uchun



qilingan uslub, chunki uni Ukrainaga qaratishdan deyarli hech qanday manfaat yo'q, Rossiyaning Ukraina bilan chegarasi Belarusnikidanda uzunroq. Meni fikrimga ko'ra Rossiya egallagan hududlarini Donetsk va Lugansk yoki Qrimni o'zini hududi ekanligini tan olinishini shart qilib va buning uchun Ukrainani boshqa hududlariga hujumllarni to'xtatishini ta'kidlaydi va shundagina Ukraina bilan oxir oqibat muzokaraga o'tirishi mumkin. Chunki Rossiya ham borgan sayin zarar ko'rishda, harajat sarflashda davom etmoqda va bu juda ko'p yillar bo'lishi mumkin emas. Bundan tashqari Ukrainani qarshilikni shuncha muddatdan beri davom ettirishiga yagona sabab bu g'arb, xususan AQSH yordami. Ukrainada deyarli urush va mudofaa imkoniyati tugab bo'lgan, faqatgina juda katta miqdorda kelayotgan yordamlargina uni saqlab turibdi. Ular xohlagan payt Ukrainani muzokarastoliga o'tirishga majburlay olishadi. Ya'ni, agar Rossiya bu urushda yengilib, yadro qurolidan foydalanish imkoniyati oshib ketsa, bir sabab topib Ukrainani u bilan kelishishga undashligi imkonsiz ish emas. Lekin Rossiya urushga deyarli bor kuchini sarfladi va sarflashda davom etyapti, uni yo'qotadigan narsasi qolmadi, iqtisodiy jihatdan bir necha yil oldin dunyo 10taligidan ham chiqib ketishga ulgurgan Rossiya iqtisodi urush natijasida shubhasiz super katta zarar ko'rishligi aniq. Urush natijasida esa Rossiya na g'olib va na mag'lub bo'lmasligi hozirgi siyosiy vaziyatdan kelib chiqib aytilgan to'g'ri qaror bo'ladi. Faqatgina g'arb

Ukrainaga yordam berishni to'xtatishga majbur bo'lmaguncha urushni to'xtatmasa u konfliktli bo'lgan hududlarni butunlay o'ziniki qilishi mumkin. Dunyoda yadro urushi yuz bermasligi ehtimolligi 90% deyish mumkin. Muhimi imkon qadarommaviy qirg'in qurolidan foydalanilishini oldini olishi kerak ekanligini dunyo siyosatchilari bizdan yaxshi tushunadi.. Demak harbir davlatda yadroviy quroldan foydalanish ehtimolini paydoqiluvchi chegara chiziqlar mavjud bo'lib, ulardan har biri bu chiziqqa yaqin kelmaslikka urinadi. Lekin kelajakni, xususan siyosat kelajagini aniq bashorat qilishning ilojisi yo'q, shuning uchun biz yuqoridagi kabi ma'lumotlar va davlatlarning o'zlarini qandaytutayotganligiga qarab siyosiy tahlil asosida tahmin qilishimiz mumkin xolos.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zbignev Bjezinskiy . "Buyuk shaxmat taxtasi"
2. <https://daryo.uz/2022/03/02/tamaddun-intihosi-yadro-urushi-xavfi-haqiqatga-qanchalik-yaqin-va-uning-oqibatlari-qanday-boladi/>
3. <https://uzreport.news/world/borrel-si-szinpinning-moskvaga-tashrifi-yadro-urushi-xavfini-kamaytirdi>
4. "On war" Carl Won Clauzevits
5. Takman " Avgustovskiye pushki"
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/evolyutsiya-teorii-yadernogo-sderzhivaniya-v-ssha-v-gody-holodnoy-voyny>
7. <https://dod.defense.gov/Portals/1/Documents/pubs/2018-National-Defense-Strategy-Summary.pdf>